14. (APMO -2003). Agar a,b,c sonlari uchburchak tomonlarining uzunliklari bo’lib, $a+b+c=1$ shartni qanoatlantirsa, $n\in N$, $n\geq 2$ uchun

$$\sqrt[n]{a^n+b^n}+\sqrt[n]{b^n+c^n}+\sqrt[n]{c^n+a^n}<1+\frac{\sqrt[n]{2}}{2}$$

tengsizlikni isbotlang.

15. Musbat $a_1,a_2,...,a_n$ sonlar uchun quyidagi

$$n\cdot\sqrt[n]{\frac{G_n}{A_n}}+\frac{g_n}{G_n}\leq n+1$$

tengsizlikni isbotlang. Bu yerda

$$g_n=\sqrt[n]{a_1a_2...a_n},\ A_n=\frac{a_1+a_2+...+a_n}{n},\ \ G_n=\sqrt[n]{A_1A_2...A_n}\ .$$

16. (Yaponiya -2005) Musbat a,b,c sonlar yig’indisi birga teng bo’lsa,

$$a\sqrt[3]{1+b-c}+b\sqrt[3]{1+c-a}+\sqrt[3]{1+a-b}\leq 1$$

tengsizlikni isbotlang.

17. (Kolmogorov kubogi, Rossiya -2004) Musbat haqiqiy a,b,c,d sonlar $abcd=1$ shartni qanoatlantirsa, u holda

$$\frac{1+ab}{1+a}+\frac{1+bc}{1+b}+\frac{1+cd}{1+c}+\frac{1+da}{1+d}\geq 4$$

tengsizlikni isbotlang.

18. (Kolmogorov kubogi, Rossiya -2004) Musbat a,b,c sonlarning yig'indisi birga teng bo'lsa,

$$(ab+bc+ca)\left(\frac{a}{b(b+1)}+\frac{b}{c(c+1)}+\frac{c}{a(a+1)}\right)\geq\frac{3}{4}$$

tengsizlik o'rinli bo'lishini isbotlang.

19. Musbat a,b,c sonlar $a+b+c=1$ shartni qanoatlantirsa,

$$\frac{a^2+b}{b+c}+\frac{b^2+c}{c+a}+\frac{c^2+a}{a+b}\geq 2$$

tengsizlikni o'rinli bo'lishini isbotlang

20. Musbat x,y,z sonlar uchun

$$\frac{x}{x+\sqrt{(x+y)(x+z)}}+\frac{y}{y+\sqrt{(y+x)(y+z)}}+\frac{z}{z+\sqrt{(z+x)(z+y)}}\leq 1$$

tengsizlikni isbotlang.

21. (Xitoy -2004) Musbat a,b,c sonlar uchun

$$\sqrt{\frac{a}{a+b}}+\sqrt{\frac{b}{b+c}}+\sqrt{\frac{c}{c+a}}\leq\frac{3\sqrt{2}}{2}$$

tengsizlikni isbotlang.

22. (Turkiya -1998) Agar $0\leq a\leq b\leq c$ shart bajarilsa,

$$(a+3b)(b+4c)(c+2a)\geq 60abc$$

tengsizlikni isbotlang.

23. (Buyuk Ipak yo'li Xalqaro olimpiadasi -2006) Musbat a,b,c sonlar uchun $abc=1$ shart bajarilsa,

$$4\left(\sqrt[3]{\frac{a}{b}}+\sqrt[3]{\frac{b}{c}}+\sqrt[3]{\frac{c}{a}}\right)\le 3\left(2+a+b+c+\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c}\right)^{\frac{2}{3}}$$

tengsizlikni isbotlang.

24. (Albaniya -2002) Musbat a,b,c sonlar uchun

$$(a+b+c)+\sqrt{a^2+b^2+c^2}\le\frac{\sqrt{3}+1}{3\sqrt{3}}\left(\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c}\right)\left(a^2+b^2+c^2\right)$$

tengsizlikni isbotlang.

25. (AQSh -2004) Musbat a,b,c sonlar uchun

$$\left(a^5-a^2+3\right)(b^5-b^2+3)(c^5-c^2+3)\ge\left(a+b+c\right)^3$$

tengsizlikni isbotlang.

26. Musbat a,b,c sonlar uchun

$$(a^2+ab+b^2)(b^2+bc+c^2)(c^2+ca+a^2)\ge(ab+bc+ca)^3$$

tengsizlikni isbotlang.

27. (AQSh -2001) Agar musbat a,b,c sonlar $a^2+b^2+c^2+abc=4$ shartni qanoatlantirsa, $0<ab+bc+ca-abc\le 2$ tengsizlikni isbotlang.

28. Haqiqiy x,y sonlar $x\ne 0,\ xy(x^2-y^2)=x^2+y^2$ shartlarni qanoatlantirsa, $x^2+y^2\ge 4$ tengsizlikni isbotlang.

29. (Vyetnam -2001) Musbat a,b,c sonlar $21ab+2bc+8ac\le 12$ shartni qanoatlantirsa, $P(a,b,c)=\frac{1}{a}+\frac{2}{b}+\frac{3}{c}$ ifodaning eng kichik qiymatini toping.

30. Musbat a,b,c sonlar uchun $\frac{a^2}{b}+\frac{b^2}{c}+\frac{c^2}{a}\geq a+b+c+\frac{4(a-b)^2}{a+b+c}$ tengsizlikni isbotlang.

31. (Hindiston -2000) Haqiqiy $a_1,...,a_n$ conlar uchun $a_1\leq a_2\leq...\leq a_n$ va $a_1+a_2+...+a_n=0$ shartlar bajarilsa, $na_1a_n+\sum_{i=1}^{n}a_i^2\leq 0$ tengsizlikni isbotlang.

32. (Ruminiya -1999) Musbat $x_1,x_2,...x_n$ sonlar $\prod_{i=1}^{n}x_i=1$ shartni qanoatlantirsa,

$$\frac{1}{n-1+x_1}+\frac{1}{n-1+x_2}+.....+\frac{1}{n-1+x_n}\leq 1$$

tengsizlikni isbotlang.

33. (Polsha -1991) Haqiqiy x,y,z sonlar $x^2+y^2+z^2=2$ shartni qanoatlantirsa, $x+y+z-xyz\leq 2$ tengsizlikni isbotlang.

34. (Vyetnam -2001) Musbat x,y,z sonlar

$\frac{1}{\sqrt{2}}\leq z<\frac{1}{2}\min\left\{x\sqrt{2},y\sqrt{3}\right\}$, $x+z\sqrt{3}\geq\sqrt{6}$, $y\sqrt{3}+z\sqrt{10}\geq 2\sqrt{5}$ shartlarni qanoatlantirsa, $P(x,y,z)=\frac{1}{x^2}+\frac{2}{y^2}+\frac{3}{z^2}$ ifodaning eng katta qiymatini toping.

35. (AQSh -2003) Musbat a,b,c sonlar uchun

$$\frac{\left(2a+b+c\right)^2}{2a^2+(b+c)^2}+\frac{\left(2b+c+a\right)^2}{2b^2+(a+c)^2}+\frac{(2c+a+b)^2}{2c^2+(a+b)^2}\leq 8$$

tengsizlikni isbotlang.

36. (Albaniya -2004) Musbat a,b,c sonlarning ko'paytmasi birga teng bo'lsa,

$$\frac{1}{\sqrt{a+\frac{1}{b}+0,64}}+\frac{1}{\sqrt{b+\frac{1}{c}+0,64}}+\frac{1}{\sqrt{c+\frac{1}{a}+0,64}}\geq 1,2$$

tengsizlikni isbotlang.

37. Musbat x, y, z sonlar $xyz=1$ shartni qanoatlantirsa,

$$x+y+z-\left(\frac{1}{x+1}+\frac{1}{y+1}+\frac{1}{z+1}\right)\geq\frac{1}{x(1+z)}+\frac{1}{y(1+x)}+\frac{1}{z(1+y)}$$

tengsizlikni isbotlang.

38. Musbat x, y, z sonlar uchun

$$3(x^2-x+1)(y^2-y+1)(z^2-z+1)\geq(xyz)^2+xyz+1$$

tengsizlikni isbotlang.

39. (Belorussiya -1997) $n\in N,\ n>1$ uchun

$$\frac{1}{2}+\frac{1}{3}+\frac{1}{4}+\ldots+\frac{1}{n}<n-n^{\frac{n-1}{n}}$$

tengsizlikni isbotlang.

40. Birdan katta haqiqiy x, y, z sonlar $\frac{1}{x}+\frac{1}{y}+\frac{1}{z}=2$ tenglikni kanoatlantirsa, $\sqrt{x+y+z}\geq\sqrt{x-1}+\sqrt{y-1}+\sqrt{z-1}$ tengsizlikni isbotlang.

41. (Hindiston -2002) Musbat a, b, c sonlar $a^2+b^2+c^2=3abc$ tenglikni qanoatlantirsa, $\frac{a}{b^2c^2}+\frac{b}{c^2a^2}+\frac{c}{a^2b^2}\geq\frac{9}{a+b+c}$ tengsizlikni isbotlang.

42. (Ukraina -2002) Musbat x, y, z sonlar uchun

$$\frac{1}{(x+y+z)^2}+\frac{1}{x^2}+\frac{1}{y^2}+\frac{1}{z^2}\geq\frac{28\sqrt{3}}{9\sqrt{xyz(x+y+z)}}$$ t

tengsizlikni isbotlang.

43. (Ukraina -2001) $a_1, a_2, ..., a_n$ haqiqiy sonlar

$a_1+a_2+...+a_n\geq n^2$, $a_1^2+a_2^2+...+a_n^2\leq n^2+1$ shartlarni qanoatlantirsa,

$n-1\leq a_k\leq n+1$ tengsizlikni isbotlang.

44. (Ukraina -2001) Musbat a,b,c *ва* α,β,γ $\alpha+\beta+\gamma=1$ sonlar uchun

$\alpha a+\beta b+\gamma c+2\sqrt{(\alpha\beta+\beta\gamma+\gamma\alpha)(ab+bc+ca)}\leq a+b+c$ tengsizlikni isbotlang.

45. (Ukraina -2000) Musbat a,b sonlar uchun

$$\frac{1}{a^3}+\frac{1}{3ab^2}+\frac{1}{3a^2b}+\frac{1}{b^3}\geq\frac{64}{3(a+b)^3}$$

tengsizlikni isbotlang.

46. (Ukraina -1999) Haqiqiy $x_1, x_2, ..., x_6\in[0;1]$ sonlar uchun

$$\frac{x_1^3}{x_2^5+x_3^5+x_4^5+x_5^5+x_6^5+5}+\frac{x_2^3}{x_1^5+x_3^5+x_4^5+x_5^5+x_6^5+5}+...+\frac{x_6^3}{x_1^5+x_2^5+x_3^5+x_4^5+x_5^5+5}\leq\frac{3}{5}$$

tengsizlikni isbotlang.

47. (Bosniya -2002) Musbat a,b,c sonlari $a^2+b^2+c^2=1$ shartni qanoatlantir-sa,

$\frac{a^2}{1+2bc}+\frac{b^2}{1+2ac}+\frac{c^2}{1+2ab}\geq\frac{3}{5}$ tengsizlikni isbotlang.

48. (Yugoslaviya -2002) Musbat $x_1x_2.....x_{2001}$ sonlar uchun

$$x_i^2\geq x_1^2+\frac{x_2^2}{2^3}+\frac{x_3^2}{3^3}+...+\frac{x_{i-1}^2}{(i-1)^3},\quad 2\leq i\leq 2001$$

shart bajarilsa, $\sum_{i=2}^{2001} \frac{x_i}{x_1 + x_2 + ... + x_{i-1}} > 1,999$ tengsizlikni isbotlang.

49. (Hindiston -2002) Musbat a,b,c sonlar uchun

$$\frac{a}{b} + \frac{b}{c} + \frac{c}{a} \geq \frac{c+a}{c+b} + \frac{a+b}{a+c} + \frac{b+c}{b+a}$$

ekanligini ko'rsating.

50. (XMO -1998) Agar $y_i \geq 1 \ (i = 1,2,...n)$ bo'lsa,

$$\frac{1}{1+y_1} + \frac{1}{1+y_2} + ... + \frac{1}{1+y_n} \geq \frac{n}{1+\sqrt[n]{y_1 y_2 ... y_n}}$$

tengsizlikni isbotlang.

51. (Hindiston -2004) Ixtiyoriy $x_i \in (0; \frac{1}{2}]$ sonlar uchun (i=1, 2,…, *n*)

$$\frac{\prod_{i=1}^{n} x_i}{\left(\sum_{i=1}^{n} x_i\right)^n} \leq \frac{\prod_{i=1}^{n}(1-x_i)}{\left(\sum_{i=1}^{n}(1-x_i)\right)^n}$$

tengsizlikni isbotlang.

52. (XMO -2001) $x_1, x_2, ...x_n$ haqiqiy sonlar uchun

$$\frac{x_1}{1+x_1^2} + \frac{x_2}{1+x_1^2+x_2^2} + ... + \frac{x_n}{1+x_1^2+x_2^2+...+x_n^2} < \sqrt{n}$$

tengsizlikni isbotlang.

53. (XMO -2004) Musbat a,b,c sonlar $ab + bc + ca = 1$ tenglikni qanoatlantirsa,

$$\sqrt[3]{\frac{1}{a} + 6b} + \sqrt[3]{\frac{1}{b} + 6c} + \sqrt[3]{\frac{1}{c} + 6a} \leq \frac{1}{abc}$$

tengsizlikni isbotlang.

54. (XMO -2004) Musbat x, y, z, a, b, c sonlar $ab + bc + ca = 1$ shartni qanoatlantirsa

$$3abc(x + y + z) \le \frac{2}{3} + ax^3 + by^3 + cz^3$$

tengsizlikni isbotlang.

55. (Moldova -2001) $a_1, a_2, ..., a_n$ haqiqiy musbat sonlar uchun

$$\frac{1}{\sum_{i=1}^{n} \frac{1}{1 + a_i}} - \frac{1}{\sum_{i=1}^{n} \frac{1}{a_i}} \ge \frac{1}{n}$$

tengsizlikni isbotlang.

56. (AQSh -1992) $a_0, a_1, a_2, ..., a_n$ musbat haqiqiy sonlari $a_{i-1} \cdot a_{i+1} \le a_i^2$ $(i = 1, 2, ..., n-1)$ shartni qanoatlantirsa

$$\frac{a_0 + a_1 + ... + a_n}{n+1} \cdot \frac{a_1 + a_2 + ... + a_{n-1}}{n-1} \ge \frac{a_0 + a_1 + ... + a_{n-1}}{n} \cdot \frac{a_0 + a_1 + ... + a_n}{n}$$

tengsizlikni isbotlang.

57. (Polsha -1996) a, b, c , x, y, z nomanfiy sonlar bo'lib,

$x + y + z = a + b + c = 1,\ \ 0 \le x, y, z \le \frac{1}{2}$ shartlarni qanoatlantirsa,

$$ax + by + cz \ge 8abc$$

tengsizlikni isbotlang.

58. (XMO -1998) Yig'indisi birdan kichik bo'lgan $x_1, x_2, ..., x_n$ musbat sonlar uchun

$$n^{n+1} x_1 x_2 .... x_n (1 - x_1 - x_2 - ... - x_n) \le (x_1 + x_2 + ... + x_n)(1 - x_1)(1 - x_2)...(1 - x_n)$$

tengsizlikni isbotlang.

59. $0 \le a,b,c \le 1$ sonlar uchun $\frac{a}{bc+1}+\frac{b}{ac+1}+\frac{c}{ab+1} \le 2$ tengsizlikni isbotlang.

60. a, b, c, d $\in [1;2]$ sonlar uchun $\frac{a+b}{b+c}+\frac{c+d}{d+a} \le \frac{4(a+c)}{b+d}$ tengsizlikni isbotlang.

61. (Vyetnam -2002) *a, b, c* uchburchak tomonlari va $0 \le t \le 1$ uchun

$\sqrt{\frac{a}{b+c-ta}}+\sqrt{\frac{b}{a+c-tb}}+\sqrt{\frac{c}{a+b-tc}} \ge 2\sqrt{1+t}$ tengsizlikni isbotlang.

62. Haqiqiy *a, b, c* sonlar $a+b+c=0$ shartni qanoatlantirsa,

$a^2b^2+b^2c^2+c^2a^2+3 \ge 6abc$ tengsizlikni isbotlang.

63. (O'zbekiston -2001) $x_1, x_2, ..., x_{2002}$ musbat sonlar $\sum_{i=1}^{2002}\frac{1}{1+x_i^2}=1$ shartni

qanoatlantirsa, $x_1x_2...x_{2002} \ge 2001^{1001}$ tengsizlikni isbotlang.

64. (Belorussiya -1999) Agar musbat *a, b, c* sonlar $a^2+b^2+c^2=3$ tenglikni

qanoatlantirsa, $\frac{1}{1+ab}+\frac{1}{1+bc}+\frac{1}{1+ac} \ge \frac{3}{2}$ tengsizlik o'rinli bo'lishini isbotlang.

65. Agar $a \ge b \ge c > 0$ va $x, y, z \in R$ bo'lsa,

$$(ax+by+cz)(\frac{x}{a}+\frac{y}{b}+\frac{z}{c}) \le \frac{(a+c)^2}{4ac}(x+y+z)^2$$

tengsizlikni isbotlang.

66. (Singapur -2004) Agar *a, b, c* > 0 bo'lsa, u holda

$$\frac{ab}{a+b+2c}+\frac{bc}{b+c+2a}+\frac{ac}{a+c+2b} \le \frac{1}{4}(a+b+c)$$

tengsizlikni isbotlang.

67. (Polsha -2006) Agar musbat *a, b, c* sonlar *ab*+*bc*+*ca*=*abc* tenglikni qanoatlantirsa, u holda $\frac{a^4+b^4}{ab(a^3+b^3)}+\frac{b^4+c^4}{bc(b^3+c^3)}+\frac{c^4+a^4}{ac(a^3+c^3)}\geq 1$ tengsizlikni isbotlang.

68. (Sankt-Peterburg -2006) Agar *a, b, c, d* musbat sonlar $a^2+b^2+c^2+d^2=1$ tenglikni qanoatlantirsa, u holda $a+b+c+d+\frac{1}{abcd}\geq 18$ tengsizlikni isbotlang.

69. (APMO , Osiyo va Tinch Okean qirg'og'i davlatlari olimpiadasi -2004) Agar *x, y, z* musbat sonlar bo'lsa,

$$(x^2+2)(y^2+2)(z^2+2)\geq 9(xy+yz+zx)$$

tengsizlik o'rinli bo'lishini ko'rsating.

70. (Xitoy -2004) Agar natural $a_1\leq a_2\leq\ldots\leq a_n$ sonlar ketma-ketligi $\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{a_i}<1$ shartni qanoatlantirsa $\left(\sum_{i=1}^{n}\frac{1}{a_i^2+x^2}\right)^2\leq\frac{1}{2a_1^2-2a_1+2x^2}$ tengsizlikni isbotlang.

($x\in R$).

71. (Rossiya -2002) Musbat x,y,z sonlar $x+y+z=3$ shartni qanoatlantirsa, $\sqrt{x}+\sqrt{y}+\sqrt{z}\geq xy+yz+zx$ tengsizlikni isbotlang.

72. (Belorussiya -2002) Natural a,b sonlar uchun $\left|a\sqrt{2}-b\right|>\frac{1}{2(a+b)}$ tengsizikni isbotlang.

73. (Belorussiya -2002) Musbat haqiqiy a,b,c,d sonlar uchun

$$\sqrt{(a+c)^2+(b+d)^2}\le\sqrt{a^2+b^2}+\sqrt{c^2+d^2}\le\sqrt{(a+c)^2+(b+d)^2}+\frac{2|ad-bc|}{\sqrt{(a+c)^2+(b+d)^2}}$$

tengsizlikni isbotlang.

74. (APMO -2002) Musbat a,b,c sonlar $\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c}=1$ shartlarni qanoatlantirsa, $\sqrt{a+bc}+\sqrt{b+ac}+\sqrt{c+ab}\ge\sqrt{abc}+\sqrt{a}+\sqrt{b}+\sqrt{c}$ ttengsizlikni isbotlang.

75. (APMO -1996) a,b,c uchburchak tomonlari bo'lsa,

$$\sqrt{a+b-c}+\sqrt{b+c-a}+\sqrt{c+a-b}\le\sqrt{a}+\sqrt{b}+\sqrt{c}$$

tengsizlikni isbotlang.

76. Musbat a,b,c sonlar $a+b+c=3$ shartni qanoatlantirsa, $2(a^3b+b^3c+c^3a)\ge 3(a^2b+b^2c+c^2a-1)$ tengsizlikni isbotlang.

77. (APMO -1998) a,b,c musbat sonlar uchun

$\left(1+\frac{a}{b}\right)\left(1+\frac{b}{c}\right)\left(1+\frac{c}{a}\right)\ge 2\left(1+\frac{a+b+c}{\sqrt[3]{abc}}\right)$ tengsizlikni isbotlang.

78. (Singapur -2001) $n\in N$ va $a_1,a_2,...,a_n$ sonlar $\sum_{i=1}^{n}a_i=1$ shartni qanoatlantirsa,

$\frac{a_1^4}{a_1^2+a_2^2}+\frac{a_2^4}{a_2^2+a_3^2}+...+\frac{a_n^4}{a_n^2+a_1^2}\ge\frac{1}{2n}$ tengsizlikni isbotlang.

79. (XMO -2000) Musbat a,b,c sonlar $abc=1$ shartni qanoatlantirsa,

$\left(a-1+\frac{1}{b}\right)\left(b-1+\frac{1}{c}\right)\left(c-1+\frac{1}{a}\right)\le 1$ tengsizlikni isbotlang.

80. (Qozog'iston -2000) Yig'indisi birga teng bo'lgan *a, b, c* sonlar uchun

$\frac{a^7+b^7}{a^5+b^5}+\frac{b^7+c^7}{b^5+c^5}+\frac{c^7+a^7}{c^5+a^5}\geq\frac{1}{3}$ tengsizlikni isbotlang.

81. (Yaponiya -2002) Musbat x, y sonlar uchun $x+y+\frac{2}{x+y}+\frac{1}{2xy}\geq\frac{7}{2}$

tengsizlikni isbotlang.

82. (Pol'sha -1996) Musbat a,b,c sonlarning yig'indisi birga teng bo'lsa,

$\frac{a}{a^2+1}+\frac{b}{b^2+1}+\frac{c}{c^2+1}\leq\frac{9}{10}$ tengsizlik o'rinli bo'lishini isbotlang.

83. (Gonkong -2005) Musbat a,b,c,d sonlarning yig'indisi birga teng bo'lsa,

$6\left(a^3+b^3+c^3+d^3\right)\geq\left(a^2+b^2+c^2+d^2\right)+\frac{1}{8}$ tengsizlikni isbotlang.

84. (Kanada -1998) Istalgan natural n soni $(n\geq 2)$ uchun

$\frac{1}{n+1}\left(1+\frac{1}{3}+\frac{1}{5}+...+\frac{1}{2n-1}\right)>\frac{1}{n}\left(\frac{1}{2}+\frac{1}{4}+\frac{1}{6}+...+\frac{1}{2n}\right)$ tengsizlikni isbotlang.

85. (Bosniya -2002) Agar $a>0$ va $0<b<1$ bo'lsa, $\sqrt{1+a^2}+\sqrt{1-b^2}\leq\frac{a}{b}+\frac{b}{a}$

tengsizlikni isbotlang.

86. (Polsha -1995) Agar $x_1=\frac{1}{2}$ va $x_n=\frac{2n-3}{2n}x_{n-1},\ n>1$ bo'lsa, $\sum_{i=1}^{n}x_i<1$ tengsizlik

o'rinli bo'lishini isbotlang.

87. (Bosniya -2002) Agar $x_i \in \left(0; \dfrac{\pi}{2}\right)$ $(i = 1, 2, ..., n)$ sonlari $\sum\limits_{i=1}^{n} tgx_i \le n$ shartni qanoatlantirsa, $\sin x_1 \cdot \sin x_2 \cdot ... \cdot \sin x_n \le 2^{-\frac{n}{2}}$ tengsizlikni isbotlang.

88. (Belorussiya -2000) Musbat $a, b, c; x, y, z$ sonlar uchun

$\dfrac{a^6}{x} + \dfrac{b^6}{y} + \dfrac{c^6}{z} \ge \dfrac{\left(a^2 + b^2 + c^2\right)}{3\left(x + y + z\right)}$ tengsizlikni isbotlang.

89. (AQSh -1997) Istalgan musbat a, b, c sonlar uchun

$\dfrac{1}{a^3 + b^3 + abc} + \dfrac{1}{b^3 + c^3 + abc} + \dfrac{1}{c^3 + a^3 + abc} \le \dfrac{1}{abc}$ tengsizlikni isbotlang.

90. (Pol'sha -2000) Aytaylik $x_i > 0$ $(i = 1, 2, ..., n)$ va $n > 2$ bo'lsin.

$x_1 + 2x_2 + 3x_3 + ... + nx_n \le \dfrac{n(n-1)}{2} + x_1 + x_2^2 + x_3^3 + ... + x_n^n$ tengsizlikni isbotlang.

91. (Gretsiya -2002) Agar a, b, c musbat sonlar $a^2 + b^2 + c^2 = 1$ shartni qanoatlantirsa, $\dfrac{a}{b^2 + 1} + \dfrac{b}{c^2 + 1} + \dfrac{c}{a^2 + 1} \ge \dfrac{3}{4}\left(a\sqrt{a} + b\sqrt{b} + c\sqrt{c}\right)^2$ tengsizlikni isbotlang.

92. (Ukraina -2002) $a_i \ge 1$ $(i = 1, 2, ..., n),$ $n \ge 1,$ $A = 1 + a_1 + a_2 + ... + a_n$

$x_k = \dfrac{1}{1 + a_k x_{k-1}}$, $1 \le k \le n$ deb belgilash kiritsak, u holda $x_1 + x_2 + ... + x_n > \dfrac{n^2 A}{n^2 + A^2}$ tengsizlikni isbotlang.

93. (Sankt Peterburg -2004) Musbat a, b, c sonlar uchun

$$\frac{ab}{3a + b} + \frac{bc}{b + 2c} + \frac{ac}{c + 2a} \le \frac{2a + 20b + 27c}{49}$$

tengsizlikni isbotlang.

94. (Irlandiya -1998) $x \neq 0$ son uchun

$$x^8 - x^5 - \frac{1}{x} + \frac{1}{x^4} \geq 0$$

tengsizlikni isbotlang.

95. (Eron -1998) Birdan katta x, y, z sonlar $\frac{1}{x} + \frac{1}{y} + \frac{1}{z} = 2$ shartni qanoatlantirsa,

$$\sqrt{x+y+z} \geq \sqrt{x-1} + \sqrt{y-1} + \sqrt{z-1}$$

tengsizlikni isbotlang.

96. (Vyetnam-1998) $x_1, x_2, ..., x_n$ $(n \geq 2)$ musbat sonlar

$\frac{1}{x_1 + 1998} + \frac{1}{x_2 + 1998} + ... + \frac{1}{x_n + 1998} = \frac{1}{1998}$ tenglikni qanoatlantirsa,

$\frac{\sqrt[n]{x_1 x_2 ... x_n}}{n-1} \geq 1998$ tengsizlikni isbotlang.

Yechimlar.

1. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligidan munosabatga ko'ra,

$$\underbrace{\frac{a^{n+k}}{b^k}+....+\frac{a^{n+k}}{b^k}}_{n}+\underbrace{b^n+b^n+....+b^n}_{k}\geq (n+k)\sqrt[n+k]{\frac{\left(a^{n+k}\right)^n b^{nk}}{b^{nk}}}=(n+k)a^n$$

yoki

$$n\cdot\frac{a^{n+k}}{b^k}+k\cdot b^h\geq (n+k)a^n\,.$$

Xuddi shunday,

$$n\cdot\frac{b^{n+k}}{c^k}+kc^n\geq (n+k)b^n,$$

$$n\cdot\frac{c^{n+k}}{a^k}+k\cdot a^n\geq \left(n+k\right)c^n$$

tengsizliklarni hosil qilamiz. Bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib,

$$\frac{a^{n+k}}{b^k}+\frac{b^{n+k}}{c^k}+\frac{c^{n+k}}{a^k}\geq a^n+b^n+c^n$$

ni hosil qilamiz.

2. Ushbu $\frac{1}{a}+\frac{1}{b}\geq\frac{4}{a+b}$ tengsizlikdan foydalanamiz:

$$\frac{1}{1-a}+\frac{1}{1-b}+\frac{1}{1-c}=\frac{1}{2}\left(\frac{1}{b+c}+\frac{1}{a+b}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{b+c}+\frac{1}{a+c}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{1}{a+b}+\frac{1}{a+c}\right)\geq$$

$$\frac{1}{2}\left(\frac{4}{2b+a+c}+\frac{4}{b+a+2c}+\frac{4}{b+2a+c}\right)=\frac{2}{1+a}+\frac{2}{1+b}+\frac{2}{1+c}.$$

3. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligidan foydalanib,

$$\frac{2}{4-ab}=\frac{4}{8-2ab}\leq\frac{4}{8-a^2-b^2}\leq\frac{1}{4-a^2}+\frac{1}{4-b^2}$$

tengsizlikni hosil qilamiz. Xuddi shunday,

$$\frac{2}{4-bc}\le\frac{1}{4-b^2}+\frac{1}{4-c^2},\ \frac{2}{4-ac}\le\frac{1}{4-a^2}+\frac{1}{4-c^2}\ .$$

Bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib,

$$\frac{1}{4-ab}+\frac{1}{4-bc}+\frac{1}{4-ac}\le\frac{1}{4-a^2}+\frac{1}{4-b^2}+\frac{1}{4-c^2}$$

tengsizlikni hosil qilamiz. Berilgan $a^4+b^4+c^4=3$ shartdan $a^2<2$ ekanligi kelib chiqadi.Bundan quyidagi

$$\left(a^2-1\right)^2(2-a^2)\ge 0\Leftrightarrow\frac{1}{4-a^2}\le\frac{a^4+5}{18}$$

tengsizlik o'rinli. Xuddi shunday,

$$\frac{1}{4-b^2}\le\frac{b^4+5}{18},\ \frac{1}{4-c^2}\le\frac{c^4+5}{18}$$

tengsizliklar o'rinli. Bu tengsizliklarni hadma-had qo'shib,

$$\frac{1}{4-ab}+\frac{1}{4-bc}+\frac{1}{4-ca}\le\frac{1}{4-a^2}+\frac{1}{4-b^2}+\frac{1}{4-c^2}\le\frac{a^4+5}{18}+\frac{b^4+5}{18}+\frac{c^4+5}{18}=1$$

ekanligini hosil qilamiz.

4. Berilgan tengsizlikni chap tomonida turgan qo'shiluvchilarni mos ravishda *A,B,C* deb belgilaymiz.

$$\left(by+cz\right)(bz+cy)=(b^2+c^2)yz+bc(y^2+z^2)\le\left(\frac{y^2+z^2}{2}\right)(b^2+c^2)+bc(y^2+z^2)=$$

$$=\frac{1}{2}\left(y^2+z^2\right)\left(b+c\right)^2\ \Rightarrow\ A\ge 2\left(\frac{a}{b+c}\right)^2\frac{x^2}{y^2+z^2}$$

Xuddi shunday , $B\ge 2\left(\frac{b}{a+c}\right)^2\frac{y^2}{t^2+x^2},\ C\ge 2\left(\frac{c}{a+b}\right)^2\frac{z^2}{x^2+y^2}$ tengsizliklarni hosil qilamiz.Berilgan shartlarga ko'ra

$$\frac{a}{b+c}\ge\frac{b}{c+a}\ge\frac{c}{a+b},\ \frac{x^2}{y^2+z^2}\ge\frac{y^2}{z^2+x^2}\ge\frac{z^2}{x^2+y^2}$$

munosabatlar o'rinli. Chebishev tengsizligini qo'llasak,

$$A+B+C \geq 2\cdot\frac{1}{3}\left\{\left(\frac{a}{b+c}\right)^2+\left(\frac{b}{a+c}\right)^2+\left(\frac{c}{a+b}\right)^2\right\}\left\{\frac{x^2}{y^2+z^2}+\frac{y^2}{x^2+z^2}+\frac{z^2}{x^2+y^2}\right\} \geq$$

$$\geq 2\cdot\frac{1}{3}\cdot\frac{1}{3}\left(\frac{a}{b+c}+\frac{b}{c+a}+\frac{c}{a+b}\right)^2\left(\frac{x^2}{y^2+z^2}+\frac{y^2}{z^2+x^2}+\frac{z^2}{x^2+y^2}\right).$$

Musbat α,β,γ sonlar uchun $\frac{\alpha}{\beta+\gamma}+\frac{\beta}{\gamma+\alpha}+\frac{\gamma}{\alpha+\beta}\geq\frac{3}{2}$ tengsizlikni isbotlaymiz.

$\alpha+\beta=\tau, \quad \beta+\gamma=s,\ \gamma+\alpha=t$ belgilash kiritib,

$$\frac{\alpha}{\beta+\gamma}+\frac{\beta}{\gamma+\alpha}+\frac{\gamma}{\alpha+\beta}=\frac{\tau+t-s}{2s}+\frac{\tau+s-t}{2t}+\frac{s+t-\tau}{2\tau}=$$

$$=\frac{1}{2}\left(\frac{\tau}{s}+\frac{t}{s}+\frac{\tau}{t}+\frac{s}{t}+\frac{s}{\tau}+\frac{t}{\tau}-3\right)\geq\frac{1}{2}(2+2+2-3)=\frac{3}{2}$$

ni hosil qilamiz. Bundan $A+B+C\geq 2\cdot\frac{1}{3}\cdot\frac{1}{3}\cdot\left(\frac{3}{2}\right)^2\cdot\frac{3}{2}=\frac{3}{4}$

Tenglik $a=b=c$ va $x=y=z$ bo'lganda bajariladi.

5. $t=a_1^2+a_2^2+...+a_n^2$ deb belgilab,

$$\begin{aligned}
&a_1a_2+a_2a_3+...+a_na_{n-1}+a_na_1\leq\\
&\leq a_1a_2+a_1a_3+a_1a_4+...+a_1a_n+\\
&+a_2a_3+a_2a_4+...+a_2a_n+\\
&+a_3a_4+...+a_3a_n+\\
&+.....+\\
&+a_{n-1}a_n=\\
&=\frac{1}{2}\left\{(a_1+a_2+...a_n)^2-(a_1^2+a_2^2+...a_n^2)\right\}=\frac{1}{2}(1-t)
\end{aligned}$$

munosabatlarni hosil qilamiz. Bu yerdan $t<1$ kelib chiqadi.

Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini qo'llab,

$$(a_1b_1+a_2b_2+...+a_nb_n)^2\leq(a_1^2+a_2^2+...+a_n^2)(b_1^2+b_2^2+...+b_2^2)=t$$

yoki $a_1b_1+a_2b_2+...+a_nb_n\leq\sqrt{t}$ tengsizlikni topamiz. Bundan

$$a_1(b_1+a_2)+a_2(b_2+a_3)+...+a_n(b_n+a_1)=(a_1b_1+a_2b_2+...+a_nb_n)+$$
$$+(a_1a_2+a_2a_3+....+a_na_1)\le\sqrt{t}+\frac{1}{2}(1-t)=-\frac{1}{2}(\sqrt{t}-1)^2+1<1$$

6. Berilgan tengsizlikni chap tomonini T bilan belgilab, o'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligidan foydalanamiz, ya'ni:

$$T=\sqrt{\frac{ab}{ab+1-a-b}}+\sqrt{\frac{bc}{bc+1-b-c}}+\sqrt{\frac{ac}{ac+1-a-c}}=$$
$$=\sqrt{\frac{ab}{(1-a)(1-b)}}+\sqrt{\frac{bc}{(1-b)(1-c)}}+\sqrt{\frac{ac}{(1-a)(1-c)}}\le$$
$$\le\frac{1}{2}\left(\frac{a}{1-b}+\frac{b}{1-a}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{b}{1-c}+\frac{c}{1-b}\right)+\frac{1}{2}\left(\frac{a}{1-c}+\frac{c}{1-a}\right)\le$$
$$\le\frac{1}{2}\left(\frac{a}{a+c}+\frac{b}{b+c}+\frac{b}{b+a}+\frac{c}{c+a}+\frac{a}{b+a}+\frac{c}{b+c}\right)=\frac{3}{2}$$

7. Tengsizlikni ikkala qismidagi qavslarni ochib ixchamlasak

$$\frac{a^2}{b^2}+\frac{b^2}{c^2}+\frac{c^2}{a^2}+\frac{a}{c}+\frac{c}{b}+\frac{b}{a}\ge\frac{a}{b}+\frac{b}{c}+\frac{c}{a}+3 \ (*)$$

ifoda hosil bo'ladi.Endi $\frac{a}{b}=x, \frac{b}{c}=y, \frac{c}{a}=z$ deb belgilash kiritsak, u holda (*) tengsizlik

$$x^2+y^2+z^2+\frac{1}{x}+\frac{1}{y}+\frac{1}{z}\ge x+y+z+3 \ (**)$$

ko'rinishga keladi. $xyz=1$ ekanligidan quyidagi

$$x^2+y^2+z^2\ge\frac{(x+y+z)^2}{3}\ge x+y+z \ (1)$$

va $\frac{1}{x}+\frac{1}{y}+\frac{1}{z}\ge 3$ (2) tengsizliklar o'rinli. (1) va (2) larni hadma-had qo'shib (**) ni hosil qilamiz. Bundan (*) isbotlandi.

8. $a+b=1$ ekanligidan foydalanib yuqoridagi tengsizlikni quyidagi shakldda yozamiz:

$$\frac{1}{3}\le\frac{a^2}{(a+b)(a+(a+b))}+\frac{b^2}{(a+b)(b+(a+b))}$$

Bundan $a^2b+ab^2\le a^3+b^3$ yoki $\left(a^3+b^3\right)-\left(a^2b+ab^2\right)=(a-b)^2(a+b)\ge 0$

9. $yz(y^2+z^2)=y^3z+yz^3\le y^4+z^4$ tengsizlik o'rinli, chunki

$$y^4-y^3z-yz^3+z^4=\left(y^3-z^3\right)(y-z)\ge 0\ \Rightarrow x(y^4+z^4)\ge xyz\left(y^2+z^2\right)\ge y^2+z^2$$

yoki

$$\frac{x^5}{x^5+y^2+z^2}\ge\frac{x^5}{x^5+x(y^4+z^4)}=\frac{x^4}{x^4+y^4+z^4}\ .$$

Xuddi shunday,

$$\frac{y^5}{y^5+x^2+z^2}\ge\frac{y^4}{x^4+y^4+z^4},\ \frac{z^5}{z^5+x^2+y^2}\ge\frac{z^4}{x^4+y^4+z^4}\ .$$

Bu tengsizliklarni hadma-had ko'shib, isboti talab qilingan tengsizlikni hosil qilamiz.

10. Yuqoridagi tengsizlikni quyidagicha yozib olamiz:

$$\frac{x^2+y^2+z^2}{x^5+y^2+z^2}+\frac{y^2+x^2+z^2}{x^5+z^2+x^2}+\frac{x^2+y^2+z^2}{z^5+x^2+y^2}\le 3$$

va Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini qo'llab,

$$(x^5+y^2+z^2)(yz+y^2+z^2)\ge(x^{\frac{5}{2}}(yz)^{\frac{1}{2}}+y^2+z^2)^{\ 2}\ge(x^2+y^2+z^2)^2$$

yoki $\dfrac{x^2+y^2+z^2}{x^5+y^2+z^2}\le\dfrac{yz+y^2+z^2}{x^2+y^2+z^2}$. Xuddi shunday,

$$\frac{x^2+y^2+z^2}{x^5+y^2+z^2}\le\frac{xz+x^2+z^2}{x^2+y^2+z^2},\quad \frac{x^2+y^2+z^2}{z^5+x^2+y^2}\le\frac{xy+x^2+y^2}{x^2+y^2+z^2}$$

munosabatlarni hosil qilamiz. Bu tengsizliklarni hadma-had qo'shsak,

$$\frac{x^2+y^2+z^2}{x^5+y^2+z^2}+\frac{x^2+y^2+z^2}{y^5+x^2+z^2}+\frac{x^2+y^2+z^2}{z^5+x^2+y^2}\le 2+\frac{xy+yz+zx}{x^2+y^2+z^2}\le 3$$

11. α,β,γ uchburchak burchaklari uchun

$1=\cos^2\alpha+\cos^2\beta+\cos^2\gamma+2\cos\alpha\cos\beta\cos\gamma$ tenglikdan foydalanib,

$$\frac{\cos\alpha}{\cos\beta\cos\gamma}\cdot\frac{\cos\beta}{\cos\gamma\cos\alpha}\cdot\frac{\cos\gamma}{\cos\alpha\cos\beta}=\frac{\cos\alpha}{\cos\beta\cos\gamma}+\frac{\cos\beta}{\cos\gamma\cos\alpha}+\frac{\cos\gamma}{\cos\alpha\cos\beta}+2$$

ifodani hosil qilamiz .

$$x=\frac{\cos\alpha}{\cos\beta\cos\gamma},\ y=\frac{\cos\beta}{\cos\gamma\cos\alpha},\ z=\frac{\cos\gamma}{\cos\alpha\cos\beta}$$

deb belgilash kiritib, $\cos\alpha+\cos\beta+\cos\gamma\le\frac{3}{2}$ tengsizlikdan foydalansak,

$$\frac{1}{\sqrt{xy}}+\frac{1}{\sqrt{yz}+\sqrt{zx}}\frac{1}{}\le\frac{3}{2}\Leftrightarrow\ 2(\sqrt{x}+\sqrt{y}+\sqrt{z})\le 3\sqrt{xyz}\Leftrightarrow$$

$$4(x+y+z+2(\sqrt{xy}+\sqrt{yz}+\sqrt{zx}))\le 9xyz\Leftrightarrow$$

$$8(\sqrt{xy}+\sqrt{yz}+\sqrt{zx})\le 9(x+y+z+2)-4(x+y+z)=5(x+y+z)+18$$

12. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligidan foydalanib,

$$\sqrt{1+a^3}=\sqrt{(1+a)(1+a^2-a)}\le\frac{2+a^2}{2},\ \sqrt{1+b^3}=\sqrt{(1+b)(1-b+b^2)}\le\frac{2+b^2}{2},$$

$$\sqrt{1+c^3}=\sqrt{(1+c)(1-c+c^3)}\le\frac{2+c^2}{2}$$

munosabatlarni topamiz. Endi quyidagi tengsizlikni isbotlasak yetarli:

$$\frac{4a^2}{(2+a^2)(2+b^2)}+\frac{4b^2}{(2+b^2)(2+c^2)}+\frac{4c^2}{(2+c^2)(2+a^2)}\ge\frac{4}{3}\Leftrightarrow$$

$$3\left(a^2(2+c^2)+b^2(2+a^2)+c^2(2+b^2)\right)\ge(2+a^2)(2+b^2)(2+c^2)\Leftrightarrow$$

$$a^2b^2+b^2c^2+c^2a^2+2(a^2+b^2+c^2)\ge a^2b^2c^2+8=72$$

Bu tengsizlik quyidagi tengsizliklarni hadma-had qo'shishdan hosil qilinadi:

$$a^2b^2+b^2c^2+c^2a^2\ge 3\sqrt[3]{(abc)^4}=48,\quad 2(a^2+b^2+c^2)\ge 6\sqrt[3]{a^2b^2c^2}=24$$

Bulardan isboti talab qilingan tengsizlikni hosil qilamiz.

13. Birinchi navbatda $x+y^2\geq x^2+y^3$ tengsizlikni isbotlaymiz. Faraz qilaylik, $x+y^2<x^2+y^3$ bo'lsin. $x^3+y^4\leq x^2+y^3$ tengsizlikdan foydalansak, farazimizga zid bo'lgan $2\left(x^2+y^3\right)\geq\left(x+x^3\right)+\left(y^2+y^4\right)\geq 2x^2+2y^3$ tengsizlik hosil bo'ladi. Shuning uchun

$$x+y^2\geq x^2+y^3\geq x^3+y^4\Rightarrow 2\left(x+y^2\right)\geq x^2+y^3+x^3+y^4\geq$$
$$\geq x^3+y^3+2x-1+2y^2-1\Rightarrow x^3+y^3\leq 2.$$

14. Umumiylikni chegaralamasdan $a\geq b\geq c$ deb olib, uchburchak tengsiz-ligini qo'llasak, $1=a+b+c>2a\Rightarrow b\leq a<\frac{1}{2}$ va bundan

$$a^n+b^n<\frac{1}{2^n}+\frac{1}{2^n}=\frac{2}{2^n}\Rightarrow\left(a^n+b^n\right)^{\frac{1}{n}}<\frac{2^{\frac{1}{n}}}{2}\quad(*)\ .$$

Endi qo'yidagini qaraymiz:

$$\left(b+\frac{c}{2}\right)^n=b^n+\frac{n}{2}c\,b^{n-1}+....+\frac{c^n}{2^n}>b^n+c^n\ \text{(chunki } \frac{n}{2}cb^{n-1}>c^n\text{)}.$$

Xuddi shunday,

$$\left(a+\frac{c}{2}\right)^n>a^n+c^n\ .$$

Demak,

$$\left(b^n+c^n\right)^{\frac{1}{n}}+\left(a^n+b^n\right)^{\frac{1}{n}}<b+\frac{c}{2}+a+\frac{c}{2}=1.\qquad(**)$$

(*) va (**) larni hadma-had qo'shib, isboti talab etilgan tengsizlikni hosil qilamiz.

15. $\frac{A_{k-1}}{A_k}=x_k$ va $x_1=1$ deb belgilash kiritsak,

$$n\sqrt[n]{\frac{G_n}{A_n}}=n\cdot\sqrt[n^2]{\frac{A_1A_2...A_n}{A_n^n}}=n\cdot\sqrt[n^2]{\frac{A_1}{A_2}\left(\frac{A_2}{A_3}\right)^2\left(\frac{A_3}{A_4}\right)^3...\left(\frac{A_{n-1}}{A_n}\right)^{n-1}}=$$

$$= n\sqrt[n^2]{x_2 x_3^2 x_4^3 \ldots x_n^{n-1}} = n\sqrt[n^2]{x_1^{\frac{n(n+1)}{2}} \cdot x_2\, x_3^2\, x_4^3 \ldots . x_n^{n-1}};$$

$$\frac{a_k}{A_k} = \frac{kA_k - (k-1)A_{k-1}}{A_k} = k - (k-1)\frac{A_{k-1}}{A_k} = k - (k-1)x_k;$$

$$\frac{g_n}{G_n} = \sqrt[n]{\frac{a_1}{A_1} \cdot \frac{a_2}{A_2} \ldots \frac{a_n}{A_n}} = \sqrt[n]{1.(2-x_2)(3-2x_3)\ldots(n-(n-1)x_k)}\,.$$

Umumlashgan Koshi tengsizligidan foydalansak

$$(\, a_i > 0,\ \alpha_i > 0,\ i = 1,2,\ldots,n \qquad \sqrt[\alpha_1+\alpha_2+\alpha_n]{a_1^{\alpha_1} a_2^{\alpha_2} \ldots a_n^{\alpha_n}} \le \frac{a_1\alpha_1 + a_2\alpha_2 + \ldots + a_n\alpha_n}{\alpha_1 + \alpha_2 + \ldots + \alpha_n}),$$

$$n\sqrt[n]{\frac{G_n}{A_n}} + \frac{g_n}{G_n} = n\sqrt[n^2]{x_1^{\frac{n(n+1)}{2}} x_2 x_3^2 \ldots x_n^{n-1}} + \sqrt[n]{1 \cdot (2-x_2)(3-2x_3)\ldots(n-(n-1)x_n)} \le$$

$$\le \frac{1}{n}\left(\frac{n(n+1)}{2} + x_2 + 2x_3 + \ldots + (n-1)x_n\right) + \frac{1}{n}(1 + (2-x_2) + (3-2x_3) + \ldots + (n-1)x_n)$$

$$\frac{n+1}{2} + \frac{1}{n}(x_2 + 2x_3 + \ldots + (n-1)x_n) + \frac{(n+1)}{2} - \frac{1}{n}(x_2 + 2x_3 + \ldots + (n-1)x_n) = n+1.$$

16. Bu tengsizlikning chap tomonini S deb belgilab, quyidagi usulda o'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar o'rtasidagi munosabatni qo'llaymiz:

$$S \le a\left(\frac{1+1+(1+b-c)}{3}\right) + b\left(\frac{1+1+(1+c-a)}{3}\right) + c\left(\frac{1+1+(1+a-b)}{3}\right) =$$

$$\frac{3a+3b+3c+ab+ac+bc-ba-ca-cb}{3} = 1$$

17.

$$\frac{1+ab}{1+a} + \frac{1+bc}{1+b} + \frac{1+cd}{1+c} + \frac{1+da}{1+d} = \left(\frac{1+ab}{1+a} + \frac{1+cd}{1+c}\right) + \left(\frac{1+bc}{1+b} + \frac{1+da}{1+d}\right) =$$

$$= \left(\frac{1+ab}{1+a} + \frac{1+ab}{ab(1+c)}\right) + \left(\frac{1+bc}{1+b} + \frac{1+bc}{bc(1+d)}\right) =$$

$$= (1+ab)\left(\frac{1}{1+a} + \frac{1}{ab(1+c)}\right) + (1+bc)\left(\frac{1}{1+b} + \frac{1}{bc(1+d)}\right) \ge$$

$$\ge \frac{4(1+ab)}{1+a+ab(1+c)} + \frac{4(1+bc)}{1+b+bc(1+d)} = 4$$

18. Bu tengsizlikni chap tomonini T bilan belgilab, umumlashgan Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagicha qo'llaymiz:

$$T\cdot\left(a\left(b+1\right)+b(c+1)+c(a+1)\right)\geq(a+b+c)^3=1$$

yoki $T\geq\dfrac{1}{ab+bc+ca+1}$ tengsizlikni va undan

$$T\geq\frac{1}{ab+bc+ca+1}\geq\frac{1}{\frac{(a+b+c)^2}{3}+1}=\frac{3}{4}$$

munosabatni hosil qilamiz.

-19.

$$\frac{a^2+b}{b+c}+\frac{b^2+c}{c+a}+\frac{c^2+a}{a+b}=\frac{a(1-b-c)+b}{b+c}+\frac{b(1-a-c)+c}{c+a}+\frac{c(1-a-b)+a}{a+b}=$$

$$=\frac{a+b}{b+c}-a+\frac{b+c}{c+a}-b+\frac{c+a}{c+b}-c=\frac{a+b}{b+c}+\frac{b+c}{c+a}+\frac{c+a}{a+b}-1\geq$$

$$\geq3\sqrt[3]{\frac{a+b}{b+c}\cdot\frac{b+c}{c+a}\cdot\frac{c+a}{a+b}}-1=2$$

20. Ixtiyoriy $x,y,z>0$ uchun $\left(x-\sqrt{yz}\right)^2\geq0\Leftrightarrow x^2+yz\geq2\sqrt{x^2yz}\Leftrightarrow$

$$x^2+xy+xz+yz\geq xy+2\sqrt{x^2yz}+xz\Leftrightarrow(x+y)(x+z)\geq\left(\sqrt{xy}+\sqrt{xz}\right)^2\Leftrightarrow$$

$$\sqrt{(x+y)(x+z)}\geq\sqrt{xy}+\sqrt{xz}$$

munosabatni topamiz. Bundan

$$\frac{x}{x+\sqrt{(x+y)(x+z)}}+\frac{y}{y+\sqrt{(x+y)(z+y)}}+\frac{z}{z+\sqrt{(z+x)(z+y)}}\leq$$

$$\leq\frac{x}{x+\sqrt{xy}+\sqrt{xz}}+\frac{y}{y+\sqrt{yx}+\sqrt{yz}}+\frac{z}{z+\sqrt{zx}+\sqrt{zy}}=$$

$$=\frac{\sqrt{x}}{\sqrt{x}+\sqrt{y}+\sqrt{z}}+\frac{\sqrt{y}}{\sqrt{y}+\sqrt{x}+\sqrt{z}}+\frac{\sqrt{z}}{\sqrt{z}+\sqrt{x}+\sqrt{y}}=1$$

21. Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini qo'llab,

$$\sqrt{\frac{a}{a+b}}+\sqrt{\frac{b}{b+c}}+\sqrt{\frac{c}{c+a}}\le\sqrt{\left(\frac{2a(a+b+c)}{(a+b)(a+c)}+\frac{2b(a+b+c)}{(b+c)(b+a)}+\frac{2c(a+b+c)}{(c+a)(c+b)}\right)}\times$$

$$\times\sqrt{\left(\frac{a+c}{2(a+b+c)}+\frac{b+a}{2(a+b+c)}+\frac{c+b}{2(a+b+c)}\right)}=$$

$$=\sqrt{2\cdot(a+b+c)\left(\frac{a}{(a+b)(a+c)}+\frac{b}{(b+c)(b+a)}+\frac{c}{(c+a)(c+b)}\right)}$$

munosabatni hosil qilamiz. Endi

$$(a+b+c)\left(\frac{a}{(a+b)(a+c)}+\frac{b}{(b+c)(b+a)}+\frac{c}{(c+a)(c+b)}\right)=$$

$$=\frac{2(a+b+c)(ab+ac+bc)}{(a+b)(b+c)(c+a)}\le\frac{9}{4}$$

yoki

$$8\big(a+b+c\big)(ab+bc+ca)\le 9(a+b)(b+c)(c+a)\Leftrightarrow$$

$$6abc\le ab(a+b)+bc(b+c)+ac(a+c)$$

tengsizlikni isbotlash yetarli. Bu tengsizlik esa o'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar o'rtasidagi munosabatga ko'ra o'rinli. Bulardan yuqoridagi isboti talab etilgan tengsizlik isbotlandi.

22. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligidan quyidagicha foydalanamiz:

$$(a+3b)(b+4c)(c+2a)=(a+b+b+b)(b+c+c+c+c)(c+a+a)\ge$$

$$\ge 4\sqrt[4]{ab^3}\cdot 5\sqrt[5]{b\cdot c^4}\cdot 3\sqrt[3]{a^2c}=60\ a^{\frac{11}{12}}\cdot b^{\frac{19}{20}}\cdot c^{\frac{17}{15}}=$$

$$=60abc\frac{c^{\frac{2}{15}}}{a^{\frac{1}{12}}\cdot b^{\frac{1}{20}}}=60\ abc\frac{c^{\frac{1}{12}}\cdot c^{\frac{1}{20}}}{a^{\frac{1}{12}}b^{\frac{1}{20}}}=60abc\left(\frac{c}{a}\right)^{\frac{1}{12}}\cdot\left(\frac{c}{b}\right)^{\frac{1}{20}}\ge 60abc$$

23. $a=\frac{x}{y}, b=\frac{y}{t}, c=\frac{t}{x}$ deb belgilash kiritsak, u holda

$$4\left(\sqrt[3]{\frac{xt}{y^2}}+\sqrt[3]{\frac{yx}{t^2}}+\sqrt[3]{\frac{yt}{x^2}}\right)\le 3\left(2+\frac{x}{y}+\frac{y}{t}+\frac{t}{x}+\frac{y}{x}+\frac{t}{y}+\frac{x}{t}\right)^{\frac{2}{3}}$$

bundan

$$4\sqrt[3]{xyt}\left(\frac{1}{y}+\frac{1}{x}+\frac{1}{t}\right)\le 3\left(2+\frac{x}{y}+\frac{y}{t}+\frac{t}{x}+\frac{y}{t}+\frac{t}{y}+\frac{x}{t}\right)^{\frac{2}{3}},$$

$$\frac{4}{\sqrt[3]{(xyt)^2}}(xy+yt+tx)\le 3\left(2+\frac{x+t}{y}+\frac{t+y}{x}+\frac{t+x}{t}\right)^{\frac{2}{3}}.$$

Bundan $64(xy+yt+tx)^3\le 27((xy+yt+tx)(x+y+t)-xyt)^2$ tengsizlikni isbotlasak yetarli.

$$27((x+y+t)(xy+yt+tx)-xyt)^2\ge$$

$$\ge 27\left((x+y+t)(xy+yt+tx)-\frac{(x+y+t)(xy+yt+tx)}{9}\right)^2=$$

$$=27\left(\frac{8}{9}(x+y+t)(xy+yt+tx)\right)^2=64(xy+yt+tx)^2\frac{\left(x+y+t\right)^2}{3}\ge 64(xy+yt+tx)^3$$

24. O’rta arifmetik va o’rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligiga ko’ra

$$\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c}\ge 3\left(\frac{1}{a}\cdot\frac{1}{b}\cdot\frac{1}{c}\right)^{\frac{1}{3}},\qquad a+b+c\ge 3\sqrt[3]{abc}$$

tengsizliklar o’rinli. Bulardan $(a+b+c)(\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c})\ge 9$ ekanligini topamiz. Bu tengsizlik va $a+b+c\le\sqrt{3(a^2+b^2+c^2)}$ tengsizliklarni hadma-had ko’paytirib,

$3\sqrt{3}\le\left(\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c}\right)\left(\sqrt{a^2+b^2+c^2}\right)$ va bundan

$$\frac{\sqrt{3}+1}{3\sqrt{3}}\left(\frac{1}{a}+\frac{1}{b}+\frac{1}{c}\right)(a^2+b^2+c^2)\ge\sqrt{3(a^2+b^2+c^2)}+\sqrt{a^2+b^2+c^2}\ge$$

$$\ge(a+b+c)+\sqrt{a^2+b^2+c^2}.$$

25. Musbat x son uchun x^2-1 va x^3-1 ifodalar bir xil ishoraladir, ya’ni

$0 \le (x^2-1)(x^3-1) = x^5 - x^3 - x^2 + 1$ yoki $x^5 - x^2 + 3 \ge x^3 + 2$.Bu tengsizlikdan foydalansak, u holda $(a^5 - a^2 + 3)(b^5 - b^2 + 3)(c^5 - c^2 + 3) \ge (a^3 + 2)(b^3 + 2)(c^3 + 2)$. Bundan $\left(a^3 + 2\right)(b^3 + 2)(c^3 + 2) \ge (a+b+c)^3$ tengsizlikni isbotlash yetarli. Umumlashgan Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llaymiz:

$$(a^3+2)(b^3+2)(c^3+2) = (a^3+1+1)(1+b^3+1)(1+1+c^3) \ge (a+b+c)^3$$

26. Umumlashgan Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini quyidagi usulda qo'llaymiz:

$$(a^2+ab+b^2)(b^2+bc+c^2)(c^2+ca+a^2) =$$
$$= (a^2+ab+b^2)(c^2+b^2+bc)(ac+a^2+c^2) \ge (ac+ab+bc)^3$$

27. Agar $a,b,c>1$ bo'lsa, $a^2+b^2+c^2+abc>4$ bo'ladi. Agar $a \le 1$ bo'lsa, u holda $ab+bc+ca-abc \ge bc-abc = bc(1-a) \ge 0$.Endi $ab+bc+ca-abc \le 2$ tengsizlikni isbotlaymiz. $a = 2\cos A,\ b = 2\cos B,\ c = 2\cos C$ va $A,\ B,\ C \in \left[0, \frac{\pi}{2}\right]$ deb belgilash kiritsak, shartga ko'ra $A+B+C=\pi$ ekanligini topamiz va

$$\cos A\cos B + \cos B\cos C + \cos A\cos C - 2\cos A\cos B\cos C \le \frac{1}{2}$$

tengsizlikni isbotlasak yetarli bo'ladi. Faraz etaylik, $A \ge \frac{\pi}{3}$ yoki $1 - 2\cos A \ge 0$ .Bundan

$$\cos A\cos B + \cos B\cos C + \cos C\cos A - 2\cos A\cos B\cos C =$$
$$= \cos A(\cos B + \cos C) + \cos B\cos C(1 - 2\cos A)$$

Quyidagi $\cos B + \cos C \le \frac{3}{2} - \cos A$ va

$2\cos B\cos C = \cos(B-C) + \cos(B+C) \le 1 - \cos A$ tengsizliklardan foydalansak,

$$\cos A(\cos B + \cos C) + \cos B\cos C(1-2\cos A) \le \cos A\left(\frac{3}{2} - \cos A\right) + \left(\frac{1-\cos A}{2}\right)(1 - 2\cos A)$$

28. $x \neq 0$ bo'lgani uchun $x^2 + y^2 > 0$ bo'ladi. Bundan $\frac{(2xy)^2}{(x^2+y^2)^2} + \frac{\left(x^2-y^2\right)^2}{\left(x^2+y^2\right)^2} = 1$ ekanligini topamiz. Oxirgi tenglikda har bir qo'shiluvchi [-1;1] oraliqqa tegishli ekanligidan

$$\frac{(2xy)^2}{\left(x^2+y^2\right)^2} = \sin^2\alpha \ \text{ va } \ \frac{\left(x^2-y^2\right)^2}{\left(x^2+y^2\right)^2} = \cos^2\alpha$$

deb belgilash kiritish mumkin. Bundan

$$\cos^2\alpha \sin^2\alpha = \frac{4\left(xy\left(x^2-y^2\right)\right)^2}{\left(x^2+y^2\right)^4} = \frac{4}{\left(x^2+y^2\right)^2},\ (x^2+y^2)^2 = \frac{16}{\sin^2 2\alpha} \geq 16,$$

$$x^2 + y^2 \geq 4.$$

29. $a = \frac{x}{3}, b = \frac{4y}{5}, c = \frac{3z}{2}$ deb belgilash kiritsak, u holda masalaning sharti quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi: $7xy + 3yz + 5xz \leq 15$

O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar haqidagi Koshi tengsizligini yuqoridagi tengsizlikka qo'llab $15 \geq 7xy + 3yz + 5xz \geq 15\sqrt[15]{x^{12}y^{10}z^8}$ yoki $x^6y^5z^4 \leq 1$ (*) tengsizlikni topamiz.

Endi (*) dan foydalansak:

$$P(a,b,c) = \frac{1}{a} + \frac{2}{b} + \frac{3}{c} = \frac{3}{x} + \frac{5}{2y} + \frac{2}{z} = \underbrace{\frac{1}{2x} + \ldots + \frac{1}{2x}}_{6\ ma} + \underbrace{\frac{1}{2y} + \ldots + \frac{1}{2y}}_{5\ ma} +$$

$$+ \underbrace{\frac{1}{2z} + \ldots + \frac{1}{2z}}_{4\ ma} \geq \frac{15}{2}\sqrt[15]{\frac{1}{x^6y^5z^4}} \geq \frac{15}{2}$$

Tenglik $x = y = z = 1$ yoki $a = \frac{1}{3}, b = \frac{4}{5},\ c = \frac{2}{3}$ bo'lganda bajariladi.

30. Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizligini qo'llasak,

$$\frac{a^2}{b}-b+\frac{b^2}{c}-c+\frac{c^2}{a}-a=\frac{\left(a-b\right)^2}{a}+\frac{(b-c)^2}{b}+\frac{\left(a-c\right)^2}{c}=$$

$$=\frac{1}{a+b+c}\left(\frac{\left(a-b\right)^2}{a}+\frac{(b-c)^2}{b}+\frac{(a-c)^2}{c}\right)(a+b+c)\geq$$

$$\frac{1}{a+b+c}\left(|a-b|+|b-d|+|c-d|\right)^2=$$

$$=\frac{1}{a+b+c}\left(2\max\{a,b,c\}-2\min\{a,b,c\}\right)^2\geq\frac{4(a-b)^2}{a+b+c}$$

31. Umumiylikni chegaralamasdan $a_1\leq a_2\leq\ldots\leq a_{i-1}\leq 0\leq a_i\leq a_{i+1}\leq\ldots.\leq a_n$ deb olamiz va $a_k=-b_k\ (k=1,2,\ldots,i-1),\ b_k>0$ deb belgilaymiz, u holda $a_i\leq a_{i+1}\leq\ldots\leq a_n$ va $b_1\geq b_2\geq\ldots\geq b_{i-1}$, $b_1+b_2+..+b_{i-1}=a_i+a_{i+1}+..+a_n$ bo'ladi. $na_1a_n=-nb_1a_n$ ekanligidan $\sum_{i=1}^{n}a_i^2\leq nb_1a_n$ ko'rsatish yetarli.

$$nb_1a_n=\left(\underbrace{b_1a_n+b_1a_n+\ldots+b_1a_n}_{(i-1)\,-ma}\right)+\left(\underbrace{b_1a_n+b_1a_n+\ldots+b_1a_n}_{(n+1-i)\,-ma}\right)=$$

$$=b_1\left(a_n+a_n+\ldots+a_n\right)+a_n\left(b_1+b_1+\ldots+b_1\right)\geq b_1\left(a_i+a_{i+1}+\ldots+a_n\right)+$$
$$+a_n\left(b_1+b_2+\ldots+b_{i-1}\right)=b_i\left(b_1+b_2+\ldots+b_{i-1}\right)+a_n\left(a_i+a_{i+1}+\ldots+a_n\right)\geq$$
$$\geq b_1^2+b_2^2+\ldots+b_{i-1}^2+a_i^2+a_{i+1}^2+\ldots+a_n^2=\sum_{i=1}^{n}a_i^2.$$

32. **T**engsizlikni

$$\frac{n-1}{n-1+x_1}+\frac{n-1}{n-1+x_2}+\ldots+\frac{n-1}{n-1+x_n}\leq n-1$$

shaklda yozib, undan

$$\frac{x_1}{n-1+x_1}+\frac{x_2}{n-1+x_1}+\ldots+\frac{x_n}{n-1+x_1}\geq 1$$

tengsizlikni xosil kilamiz. $y_i=\dfrac{x_i}{n-1+x_i}$(*) belgilash kiritsak, u holda

$S = y_1 + y_2 + ... + y_n \geq 1$ tengsizlikni isbotlash yetarli. O'rta arifmetik va o'rta geometrik miqdorlar o'rtasidagi munosabatga ko'ra,

$$S - y_1 \geq (n-1)\sqrt[n-1]{\frac{y_1 y_2 \cdot ... \cdot y_n}{y_1}},$$

$$S - y_2 \geq (n-1)\sqrt[n-1]{\frac{y_1 y_2 \cdot ... \cdot y_n}{y_2}},$$

$$\dots\dots\dots\dots\dots\dots$$

$$S - y_n \geq (n-1)\sqrt[n-1]{\frac{y_1 y_2 \cdot ... \cdot y_n}{y_n}}$$

tengsizliklar o'rinli. Bu tengsizliklarning mos kismlarini kupaytirib

$$(S - y_1)(S - y_2)...(S - y_n) \geq (n-1)^n y_1 y_2 ... y_n;$$

tengsizlikni va (*) ko'ra $x_i = \dfrac{(n-1)y_i}{1 - y_i}$ yoki

$(n-1)^n y_1 y_2 ... y_n = (1 - y_1)(1 - y_2)...(1 - y_n)$ bulardan

$(S - y_1)(S - y_2)...(S - y_n) \geq (1 - y_1)(1 - y_2)...(1 - y_n)$ (**) munosabatni xosil kilamiz. Agar $0 < S < 1$ bo'lsa, $S - y_i < 1 - y_i$ yoki $\prod_{i=1}^{n}(S - y_i) \leq \prod_{i=1}^{n}(1 - y_i)$. Bu (**) ga ziddir. Demak $S \geq 1$ ekan.

33. Masalaning shartidan $|x| = \sqrt{2 - y^2 - z^2}$ va $yz \leq 1$ ekanligini ko'rish mumkin. Koshi-Bunyakovskiy-Shvarts tengsizliginidan quyidagi usulda foydalanib,

$$x + y + z - xyz = x(1 - yz) + y + z \leq |x| \cdot |1 - yz| + |y + z| =$$

$$= \sqrt{2 - y^2 - z^2}\,|1 - yz| + |y + z| \leq \sqrt{\left(\left(2 - y^2 - z^2\right) + \left(y + z\right)^2\right)\left(\left(1 - yz\right)^2 + 1\right)} =$$

$$= \sqrt{\left(2 + 2yz\right)\left(2 - 2yz + y^2 z^2\right)}$$

munosabatni hosil qilamiz. Endi $\left(1 + yz\right)(2 - 2yz + y^2 z^2) \leq 2$ ekanligini ko'rsatish yetarli. Bu tengsizlikning chap tomonidagi qavslarni ochib ixchamlash natijasida $y^3 z^3 \leq y^2 z^2$ yoki $yz \leq 1$ ni xosil qilamiz, bundan esa $x + y + z - xyz \leq 2$ tengsizlik isbotlandi.

34. $\frac{1}{x\sqrt{2}}=a,\ \frac{1}{y\sqrt{3}}=b,\ \frac{1}{2z}=c$ deb belgilash kiritsak, u holda

$Q(a,b,c)=2a^2+6b^2+12c^2$ ifodaning eng katta qiymatini topsak masala yechiladi.

a,b,c musbat sonlar quyidagi shartlarni qanoatlantiradi:

$$\max\{a,b,\}<c\le\frac{1}{2} \qquad (1)$$

$$c\sqrt{2}+a\sqrt{3}\ge 2\sqrt{6}ac \qquad (2)$$

$$c\sqrt{2}+b\sqrt{5}\ge 2\sqrt{10}bc \qquad (3)$$

(2) dan

$$\frac{\sqrt{2}}{a}+\frac{\sqrt{3}}{c}\ge 2\sqrt{6}\Rightarrow\frac{2}{a^2}+\frac{3}{c^2}\ge 12\Rightarrow\frac{1}{6}a^2\left(\frac{2}{a^2}+\frac{3}{c^2}\right)\ge 2a^2,$$

Bundan

$$a^2+c^2=2a^2+c^2-a^2\le\frac{1}{6}a^2\left(\frac{2}{a^2}+\frac{3}{c^2}\right)+c^2\left(1-\frac{a^2}{c^2}\right)\le\frac{1}{6}a^2\left(\frac{2}{a^2}+\frac{3}{c^2}\right)+\frac{1}{2}\left(1-\frac{a^2}{c^2}\right)=\frac{5}{6}$$

Xuddi shunday (1) va (3) dan $b^2+c^2\le\frac{7}{10}$ ekanligini topamiz.

Shunday qilib, $Q(a,b,c,)=2(a^2+c^2)+6(b^2+c^2)+4c^2\le\frac{118}{15}$

Tenglik $Q(a,b,c)=Q\left(\frac{1}{\sqrt{3}},\frac{1}{\sqrt{5}},\frac{1}{\sqrt{2}}\right)=\frac{118}{15}$ bajariladi va $a=\frac{1}{\sqrt{3}},\ b=\frac{1}{\sqrt{5}},\ c=\frac{1}{\sqrt{2}}$

